

**MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI****Raximova Dinara Raximovna***Navoiy viloyati Navbahor tumani XTBga qarashli 4-umumiy o'rta ta'lim maktabining
Matematika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiya (AKT) larini yanada rivojlantirish, har bir sohaga tatbiq qilish, mutaxassislarning kompyuter savodxonligini oshirish kabi masalalar davr talabiga muvofiq yechilmoqda.*

Kalit so'z: *Axborot, texnologiya, elektron jadval, modellashtirish.*

Biz bilamizki, matematika fani shunisi bilan ahamiyatli va foydaliki, uningtushunchalari, formulalari, uslublaridan, algoritmlaridan fizika, kimyo, biologiya fanlaridantashqari boshqa qator fanlarda, hattoki, ijtimoiy–gumanitar fanlarni o'rganish va talqinetishda keng foydalanish mumkin. Fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish bilan ushbu'quv fanlarida bayon etiladigan matematik tushunchalarni bir xilda, yangi, zamonaviymatematik tilda talqin qilish lozim. Bunda albatta har bitta fanda matematik tushunchaningmazkur fandagi mazmunini o'quvchilarga ko'rsatib berish zarur. Zamonaviy matematikafani o'qituvchisiumumiy matematik tushunchalar va g'oyalarni o'zlashtirish darsningasosiy maqsadi deb hisoblasa, unda o'quvchilarga ularning mohiyatini to'la tushuntirishgaerishishi kerak. Kiritilayotgan ob'yektlar mazmunini o'quvchilar yanada chuqurroq anglashiuchun ularni tushushntirishda bir xil bo'lgan so'zlar bilan ifodalanadigan o'xshashliklaro'tkazish kerak.

Ma'lumki, matematika o'qitish nazariyasi va metodikasining umumiy yo'lini didaktikabelgilab beradi. Metod tanlashda nazariy ma'lumot va unga xos keladiganmashqlar sinfningtayyorgarligi, o'quvchilarning yoshi va mavzuning hajmi kabilar hisobga olinadi.O'qituvchinng metodik mahorati, dastavval, o'quvchilarda bilimni o'rganishiga havasuyg'ota olishi bilan belgilanadi. Bunda o'qituvchiga, xilma-xil usullardan foydalanishyordam beradi. Masalan, matematika o'qitishning quyidagi usullari mavjud:

- Matematika o'qitish an'anaviy usullari;
- Muammoli ta'lim usuli;
- Programmallashtirilgan ta'lim xususiyatlari;
- Matematika o'qitishda nostandart usullar.

Dars jarayonida o'quvchilarga berilayotgan masalalarni yechishda ularni boshqafanlardagi o'rnini amaliyotda, hayotga qanday qo'llanilishini har doim o'quvchilargatushuntirib borish lozim. Buning natijasida o'quvchi boshqa fanlardan o'rganayotgan har birbilimlarinitushunib va anglab o'zlashtiradilar:

-matematik mavzularni va muammolarni yaxshi tushunadilar, ularni taxlil qilaoladilar;

-o'rganilayotgan fan isbotlari qanchalik murakkab bo'lmasin, ularni moddiy dunyoni aloqadorligi asosida anglab oladilar;

-moddiy meros, moddiy boylik, moddiy baza bularning barchasi matematik tushunchaga borib taqaladi;

-matematik tushunchalarda fanlararo aloqadorlikni uyg'unlashtira oladilar.

Matematik tushunchalardan boshqa fanlardan foydalanishni amalda ko'rsatish o'quvchi uchun katta ahamiyatga ega. Albatta shu o'rinda matematika fani o'qituvchisi ta'limning zamonaviy metodlariga asoslanib ish ko'rishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Zamonaviy matematika darslarida eng oson va qulay bo'lgan — Adashmal usul matematika fanini uncha xush ko'rmaydigan o'quvchilar uchun qulay va oddiy usul bo'lib, darsda bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilarning ishlashini ta'minlashi mumkin. Ya'ni, fano'qituvchisi oddiy misol va masalalarni yechishni topshiriq beradi, uni nazorat qilib turadi, yechimni tekshirish esa o'quvchilarning o'ziga, aytaylik, ularning o'rtoqlariga qoldiriladi. Demak, bir birlarini tekshirib, xatolarini o'z joyida tuzatadilar. Bu o'quvchilar faolligini oshiribgina qolmay, ularni bosh qotirishga undaydi. Shuningdek bu usul matematikato'garaklari a'zolari uchun ham juda qo'l keladi. — Adashma usulidan foydalanib quyidagi ijobiy va faol natijalarga erishish mumkin:

1. Bunda avvalo ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi, o'qituvchini yangi pedagogik imkoniyatlari ochiladi.

2. O'qituvchi sinfdan o'quvchilarning masala yechish jarayonini to'la nazorat qilaoladi, ularni baholashda vaqtdan yutadi.

3. O'quvchilarning individual xususiyatlarini namoyon bo'lishiga, ularning ijodiy izlanuvchanligining shakllanishiga yordam beradi.

4. Mashg'ulot davomida o'quvchi masalani ko'chiruvchi emas, faol yechuvchi, o'rganuvchi, mustaqil fikrlovchiga aylanadi.

5. Eng asosiysi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi bog'liqlik kuchayadi, o'quvchi yechilgan masalalarga o'xshash masalalarni mustaqil yechishga harakat qiladi.

Yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan masalalar yechish jarayonini o'qituvchi bevosita kuzatib borish imkoniyatiga erishadi.

Matematika o'qitishda o'quvchilarni yodlashga yoki ularni fikrlamasdan faqat qaytaso'zlab berish kabi usullardan vozkechilib, darsning ta'limiy jihatlarini kuchaytiradigan usullarga alohida e'tibor qilinmoqda. Bunda o'quvchilar bilan bajariladiga barcha ishlar uyangi mavzuni o'rganish, olingan bilimlarni mustahkamlash, so'rash yoki suhbat bo'lsin, ular o'quvchilarning qulay yechimlarini izlashga ratsional almashtirishlar bajarishga xulosachiqarish va isbotlashlarga jalb qilishga qaratiladi.

Mustaqil ishlar, masallar yechish bo'yicha mashqlar bo'lishi yangi teoremlarni tahlil qilish bo'yicha ish, yangi formulani chiqarish bo'yicha masalalar bo'lishi mumkin. Masalan, ikki son yig'indisi kvadrati formulasi chiqarilgandan so'ng mustaqil ravishda ikkison ayirmasi kvadrati formulasini keltirib chiqarishni taklif qilish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kun o'quvchisini zamon talablari asosida o'qitish lozim. Zero, yangi texnologiyalar zamonida dunyoga kelayotgan o'g'il-qizlar o'zining bir qator umumiy sifatleri bilan ajralib turadi. Turmush tarzimiz, qiziqish va xohish-istaklarimiz global makonda qariyb o'xshash tus olayotgan bir vaqtda kechagi o'qitish usullari bilan maqsadga erishib bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiyasoslari - T.: 2006.
2. Umirbekov A.U., Shoabdalov SH.SH. Matematikani takrorlash - Toshkent: "O'qituvchi", 1989.
3. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogic texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2008.
4. <http://www.pedagog.uz> - Toshkent davlat pedagogika universiteti vebsayti.
5. <http://www.ziyonet.uz>. - axborot ta'lim portali.